
TABIIY FANLAR 3

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
3-sinfi uchun

MASHQ DAFTARI

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



Toshkent – 2022

UO‘K 5(075.3)
KBK 2ya72
T-12

Tuzuvchilar:
Z. B. Sangirova, K. T. Suyarov, Z. Y. Tillayeva,
M. M. Avezov, M. X. Baymuratova, S. G‘. Xasanova

Xalqaro ekspert:
Philippa Gardom Hulme

Taqrizchilar

D. B. Dehqonov – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti direktori, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Sh. M. Sharipov – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU geografiya va tabiiy resurslar fakulteti dekani, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.

G. A. Mavlyanova – Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

G. D. Axmedova – Toshkent shahri, Mirobod tumanidagi 125-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

K. A. Azimboyeva – Toshkent shahri, Mirobod tumanidagi 125-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

L. Sh. Uralova – Toshkent shahri, Sergeli tumanidagi 6-IDUM oliy toifali biologiya fani o‘qituvchisi.

Tabiiy fanlar [Matn]: 3-sinf uchun mashq daftari / Z. B. Sangirova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 96 b.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8067-3-3

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

AZIZ BOLAJON!

Siz quyi sinflarda tabiatni butun bir borliq sifatida o‘rgandingiz. Tirik organizmlar, ularning hayot tarzi, yashash joylari, atrof-muhit holati, odam salomatligi, ona sayyoramiz – Yerdagi tabiiy boyliklar, Quyosh sistemasi, energiya, tabiatdagi kuchlar bilan bog‘liq topshiriq va amaliy ishlarni bajardingiz hamda yangi bilimlarga ega bo‘ldingiz. 3-sinfda esa egallagan bilimlaringizni kundalik hayotda qo‘llash orqali qiziqarli topshiriqlarga yechim topasiz. Amaliy va loyiha ishlarini bajarish orqali tadqiqotchilik ko‘nikmalaringizni yanada rivojlantirasiz.

Mashq daftari bilan ishlash mobaynida siz tabiatda hodisa va jarayonlar qanday ro‘y beradi, ular qanday oqibatlarga olib keladi, tabiiy ofatlarning oldini olish mumkinmi, jismlarning harakatiga qanday omillar ta’sir qiladi kabi savollarga javob topish, o‘z fikr va g‘oyalaringizni bayon etish, kichik guruhlarda muhokama qilish ko‘nikmalarini namoyon etasiz.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

1-MAVZU. TABIATNI QANDAY O‘RGANAMIZ?

1-topshiriq. Mos sezgi organini tanlang.



2-topshiriq. Tushib qolgan so‘zlarni to‘g‘ri joylashtiring.

ko‘zimiz | quloqlarimiz | burnimiz | teri orqali sezamiz | til | sezgi

Biz tabiat go‘zalligini _____ bilan ko‘ramiz. Daraxtdagi barglarning shitirlashi, suvning jildirab oqishini _____ yordamida eshitamiz. Xushbo‘y gullar hidini _____bilan hidlaymiz. Biror narsaning qattiq yoki yumshoq ekanini _____ _____.

Ovqat mazasini _____ yordamida bilamiz.

Tabiat, atrof-muhit haqida to‘g‘ri ma’lumot olishimizda _____ organlari katta ahamiyatga ega.

3-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	O‘simlik yaxshi rivojlanishi uchun quyosh nuri zarur.	
2.	Hayvon va o‘simliklar tirik organizm hisoblanadi.	
3.	Odamda beshta sezgi organi bor.	
4.	Tuz va shakarni faqat ko‘rish orqali farqlash mumkin.	
5.	Mashina tirik organizm kabi harakatlanadi.	
6.	Baliq suvda yashaydi, u umurtqasiz hayvon.	
7.	Daryo va ko‘llar suv havzasiga kiradi.	
8.	Yer o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanadi.	

AMALIY MASHG‘ULOT

2-MAVZU. MEN TADQIQOTCHIMAN!

Bizga kerak

✓ Qora qalam ✓ Skotch ✓ Oq qog‘oz

1. Oq qog‘ozning barmoqqa mo‘ljallangan qismini qalam bilan bo‘yang.

2. Barmog‘ingizni bo‘yalgan qog‘ozga ishqalang.

3. Bir bo‘lak skotchni bo‘yalgan barmog‘ingizga yopishtiring.

4. Skotchni barmoqdan ko‘chirib, jadvalga yopishtiring.

O‘ng qo‘l				
Bosh barmoq	Ko‘rsatkich barmoq	O‘rta barmoq	Nomsiz barmoq	Jimjiloq
Chap qo‘l				
Bosh barmoq	Ko‘rsatkich barmoq	O‘rta barmoq	Nomsiz barmoq	Jimjiloq

5. Hosil bo‘lgan barmoq izlarini lupa yordamida o‘rganing.

6. Barmoq izlari qaysi turga oid ekanini aniqlang.




1 2 3

1. Yoysimon _____
2. Ilgak _____
3. Aylana _____

AMALIY MASHG‘ULOT
3-MAVZU. SEZGI ORGANLARI YORDAMIDA MEVALARNI O‘RGANAMIZ

1-topshiriq. Kataklarni bo‘yab meva rasmini chizing. Mevalar rasmini chizishda qaysi sezgi organlaridan foydalanganingizni aytib bering.



2-topshiriq. To‘g‘ri javoblarni toping.

1) Qatiq organizm uchun foydali.
2) Olma – vitaminga boy meva.
3) Ko‘zni charchatmaslik uchun ko‘p o‘qish kerak.
4) Teri yordamida hid bilish mumkin.
5) Terida ta’m biluvchi retseptorlar joylashgan.
6) Quloq eshitish a’zosi hisoblanadi.

4-MAVZU. TIRIK ORGANIZMLARNING XILMAXILLIGI

1-topshiriq. Har bir qatordagi ortiqcha rasmni toping va javobingizni asosslang.




















2-topshiriq. Grafik diktantni chizing. Hosil bo‘lgan organizm qaysi guruhga kiradi?

2 ↑	5 ↓	2 ↓	1 ↓	7 ↓	2 ↓	2 ↑
1 →	1 →	1 →	1 →	1 ←	1 ←	2 ←
1 ↑	1 ↑	1 ↓	2 ↓	1 ↓	5 ↓	2 ↑
2 →	1 →	1 →	1 →	2 ←	1 ←	1 ←
1 ↑	2 ↑	1 ↑	1 ↓	1 ↑	1 ↓	6 ↑
2 →	1 →	1 →	1 →	1 →	2 ←	2 ←
1 ↑	1 ↑	2 ↑	4 ↓	5 ↑	1 ↑	1 ↓
1 →	2 →	1 →	1 ←	1 ←	1 →	2 ←
1 ↓	1 ↓	1 ↑	2 ↓	2 ↑	5 ↑	
1 →	1 →	2 →	1 ←	6 ←	1 ←	



AMALIY MASHG‘ULOT
5-MAVZU. O‘SIMLIKLAR XILMAXILLIGI

1-topshiriq. Rasmni bo‘yang. Qubba hosil qiluvchi o‘simlikka ta’rif bering.



2-topshiriq. Limonning foydasi to‘g‘risida qisqa matn yozing.




3-topshiriq. Jadvalini to‘ldiring.

T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Qarag‘ay – ochiq urug‘li o‘simlik.	
2.	Qora rayhonda rang beruvchi moddalar bor.	
3.	Limon – yopiq urug‘li o‘simlik.	
4.	Daraxt bir nechta yo‘g‘on tanaga ega.	
5.	Qarag‘ay – buta.	

6-MAVZU. HAYVONLAR XILMAXILLIGI. HASHAROTLAR

1-topshiriq. Berilgan hayvonlarni qanday guruhlarga bo‘lish mumkin? Guruhga xos belgilarni ayting.




2-topshiriq. Kataklarda yashirilgan hasharotlar nomini topib, rangli qalamlar bilan bo‘yang.

Xonqizi, pashsha, ninachi, asalari, qo‘ng‘iz, chivin, suvarak.


x	o	n	i	n	a	ch	i	o
a	n	p	a	sh	sh	a	s	a
s	q	i	z	i	q	o‘	n	g‘
a	r	i	a	k	p	a	z	i
l	a	a	r	ch	i	v	i	n
s	u	v	a	k	i	v	i	n

3-topshiriq. Kataklarni mos rangga bo‘yang. Hosil bo‘lgan kapalakka xos belgilarni ayting.



7-MAVZU. ORGAN VA ORGANLAR SISTEMASI


1-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

Organ	Organ nomi	Vazifasi
		
		
		
		
		

2-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Yurak qonning tomirlar bo‘ylab harakatini ta’minlaydi.	
2.	O‘pka – juft organ.	
3.	Odam nafas olganda karbonat angidrid yutadi.	
4.	Qon oziq moddalarni barcha organlarga olib boradi.	
5.	Muskul va teri tayanch-harakat vazifasini bajaradi.	
6.	Qon tomirlarga arteriya va vena kiradi.	

3-topshiriq. Rasmda berilgan organlar sistemasi organizmda qanday vazifani bajaradi?



AMALIY MASHG‘ULOT

8-MAVZU. ODAM ORGANLARI QANDAY ISHLAYDI?

1-topshiriq. Rasmlarga qarang. Rasm asosida jadvalni to‘ldiring.



To‘g‘ri	Noto‘g‘ri

2-topshiriq. Ortiqchasini toping va sababini tushuntiring.

a) yurak, o‘pka, vena, arteriya

b) oshqozon, ichak, og‘iz, traxeya

d) qizilo‘ngach, traxeya, bronx, o‘pka

e) umurtqa pog‘onasi, yelka muskuli, bosh skeleti, ko‘krak qafasi

f) tish, umurtqa pog‘onasi, qo‘l suyagi, qorin muskuli

g) ko‘z, burun, qorin, quloq

3-topshiriq. Qaysi organ tayanch-harakat sistemasiga kiradi?

a) miya

b) o‘pka

d) umurtqa pog‘onasi

e) oshqozon

9-MAVZU. IMMUNITET

1-topshiriq. Teri shikastlanganda qanday birinchi yordam ko‘rsatish kerak?



Uchli buyumlar bilan shikastlanganda



Teri kuyganda




Teri tirnalganda



Tig‘li buyumlar bilan shikastlanganda



Sovuq urganda



2-topshiriq. Immunitetni oshiruvchi mahsulotlarni o‘rganamiz.

















AMALIY MASHG‘ULOT
10-MAVZU. SOG‘LOM BO‘LISH SIRLARI

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

A. Vitaminning qanday turlarini bilasiz?_____

_____

B. Oziqlanish piramidasi nima?_____

_____

D. Faol dam olish qanday tashkil qilinadi?_____

_____


E. Kun tartibiga amal qilasizmi?_____


_____


F. Shaxsiy gigiyena qoidalarini bilasizmi?_____


_____

2-topshiriq. Bolalarning qaysi biri dasturxon atrofida o‘tirish qoidalarini buzyapti?









3-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.


Vitaminlar	Shu vitaminga boy mahsulotlar
A	
B	
C	
D	

4-topshiriq. Jadvalni o‘rganing. Qaysi mahsulotlar tarkibida oqsil ■, uglevod ■, yog‘ ■ va vitaminlar ■ ko‘p uchrashini ranglar bilan bo‘yab ifodalang.


Tuxum	Olma	Sariyog‘	Mol go‘shti
Kartoshka	Qaymoq	Sut	Limon
Yong‘oq	Makaron	Baliq	Dumba yog‘i
Sabzi	Shakar	Ukrop	Non

11-MAVZU. O‘SIMLIKLARDAGI HAYOTIY JARAYONLAR

1-topshiriq. O‘simlik organlarini yozing.



2-topshiriq. O‘simlik yaxshi hosil berishi uchun nimalar zarur?




3-topshiriq. O‘simlikdagi jarayonlarning o‘xshashligi va farqini toping.

Nafas olish	Umumiy	Oziqlanish

12-MAVZU. O‘SIMLIKLARNING KO‘PAYISHI VA RIVOJLANISHI

1-topshiriq. Gul qismlarini yozing.




2-topshiriq. Na’matak hayot siklining ketma-ketligini belgilang.



1



2



3




4




5



6



3-topshiriq. Rasmni bo‘yang. Mevalar sonini sanang.



LOYIHA ISHI

13-MAVZU. URUG‘ VA MEVANI O‘RGANAMIZ

1-topshiriq. Mevalarni tarqalish usuli bilan to‘g‘ri tutashtiring.















2-topshiriq. Rasmni bo‘yang. Berilgan tirik organizmlardan oziq zanjiri tuzing.



1 2 3 4 5 6 7 8

14-MAVZU. HAYVONLARDAGI HAYOTIY JARAYONLAR

Topshiriq. Hayvonlarni guruhlarga ajrating.














Umurtqali	Umurtqasiz

To‘g‘ri javoblarni belgilang.

1) Tirik organizmlar yashashi uchun suv, havo, oziq zarur.
2) O‘simliklar o‘z ozuqasini fotosintez orqali hosil qiladi.
3) Barcha tirik organizmlar nafas olganda kislorod ajratadi.
4) Hayvonlar oziqlanishiga ko‘ra o‘txo‘r va go‘shtxo‘r bo‘ladi.
5) Toshbaqa tuxum qo‘yib ko‘payadi.
6) Gepard tug‘ilgan bolasini sut bilan boqadi.

15-MAVZU. YASHASH JOYINING TURLARI

1-topshiriq. Yashash joyining turlariga 5 tadan misol yozing.

Yashash joyining turlari

Tabiiy	Sun’iy

2-topshiriq. Sun’iy yashash joylariga tegishli kataklarni sariq, tabiiy yashash joylariga tegishlilarini yashil rangga bo‘yang.













16-MAVZU. YASHASH JOYIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

1-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Suv va havo tirik organizmlar yashashi uchun eng muhim omildir.	
2.	Yer yuzasi notekis, yog‘in ko‘p yog‘adigan, namlik yuqori bo‘lgan hududlarda sho‘rxoklar vujudga keladi.	
3.	To‘qayzorlar yer yuzasining nisbatan tekis, namlik yuqori, havo harorati salqin joylarida hosil bo‘ladi.	
4.	Botqoqliklarning vujudga kelishiga hududning tekisligi, havo haroratining juda yuqoriligi, namlikning yetishmasligi sabab bo‘ladi.	
5.	Tog‘ o‘rmonlari yer yuzasining notekisligi, haroratning salqinligi, namlik va oqar suvlarning ko‘pligi hisobiga vujudga keladi.	

2-topshiriq. Rasmda nimalar tasvirlangan? Mos ma’lumotlarni yozing.



O‘ziga xos jihatlari: _____

_____




O‘ziga xos jihatlari: _____

_____

O‘xshash jihatlari: _____

_____

3-topshiriq. Rasmni bo‘yang va tog‘ o‘rmonlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni yozing.



17-MAVZU. OKEAN NIMA?

1-topshiriq. Okean va dengizni qanday tasavvur qilasiz? Fikrlaringizni kichik hikoya shaklida yozing.

2-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.


T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Okean suvlari sho‘r va ichishga yaroqsiz.	
2.	Quruqliklarga yog‘inlarni okeandan esadigan shamollar olib keladi.	
3.	Okeanlarga suv buloqlar va koinotdan keladi.	
4.	Dengiz va okean suvlarining shamol ta’sirida harakatlanishidan to‘lqinlar hosil bo‘ladi.	
5.	Yer yuzi tabiatining shakllanishida okeanlar ahamiyatga ega emas.	

3-topshiriq. “Okeandagi hayot” nomli rasmni bo‘yab, unda tasvirlangan tirik organizmlarning nomini yozing.



18-MAVZU. YERNING ICHKI QISMLARI

1-topshiriq. Yerning ichki qismlarini o‘zingiz tasavvur qilgan rangga bo‘yang va ularning nomini yozing.



2-topshiriq. Yuqoridagi chizmadan foydalanib, Yerning ichki qatlamlarini qalinligiga ko‘ra tartib bilan jadvalga joylashtiring.

Eng qalinidan ⟶ yupqasiga		

3-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Yerning ichki tuzilishini shaftoli, tuxum va olmaga o‘xshatish mumkin.	
2.	Yerning eng ustki, yupqa va qattiq qobig‘i mantiya deb ataladi.	
3.	Yer po‘sti va yadro oralig‘ida suv qobig‘i joylashgan.	
4.	Yer yadrosi qalin emas va Yer yuzasiga juda yaqin joylashgan.	
5.	Yerning ichki qismi qatlamli tuzilishga ega.	
6.	Yerning markazida yadro joylashgan.	
7.	Yerning ichki tuzilishi Yer po‘sti, suv qatlami, mantiya, zich havo qatlami va yadrodan iborat.	

4-topshiriq. Yerning ichki qatlamlari bo‘lmaganda nima sodir bo‘lar edi deb o‘ylaysiz? Fikringizni yozing.


19-MAVZU. YER YUZASIDAGI NOTEKISLIKLAR (RELYEF)

1-topshiriq. Yer yuzasidagi notekisliklarning hosil bo‘lishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi kuchlarning har biriga uchtadan misol yozing.


RELYEF

Yerning ichki kuchlari	Yerning tashqi kuchlari

2-topshiriq. Rasmga qarang. Yer yuzi relyefi o‘zgarishiga nimalar ta’sir ko‘rsatganini aniqlang va fikringizni yozing.



3-topshiriq. Rasmni bo‘yang. Unda nima tasvirlangan?



4-topshiriq. Shamol va suvning Yer yuzi relyefini o‘zgartirishdagi ahamiyati haqida fikringizni yozing.

20-MAVZU. YER YUZI RELYEFI QANDAY O‘ZGARADI?

1-topshiriq. Yer yuzasi relyefining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni belgilang *(bir nechta javob belgilanishi mumkin).*

a) o‘simliklar
b) zilzila
d) hayvonlar
e) quyosh nuri
f) shamol
g) oqar suvlar
h) qoyatoshlar
i) yog‘inlar

2-topshiriq. Qaysi rasmda shamol hosil qilgan relyef shakli tasvirlangan?



a)



b)



d)




e)

3-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Quyosh nuri yer yuzasini qizdirishi natijasida tog‘ jinslari yemirilib, nuray boshlaydi.	
2.	Tog‘ yonbag‘irlari va cho‘llarda yomg‘ir ko‘p yog‘ishi natijasida relyef o‘zgaradi.	
3.	Tog‘larning qiya yonbag‘irlariga yog‘gan yog‘inlar yig‘ilib, soy va daryolar hosil bo‘ladi.	
4.	Soy va daryolar relyef o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatmaydi.	
5.	Shamol, suv va quyosh nuri relyef o‘zgarishiga ta’sir etuvchi asosiy omillardir.	

4-topshiriq. Rasmda nima tasvirlangan? Suv relyef o‘zgarishiga qanday ta’sir etadi? Rasmni bo‘yang.



AMALIY MASHG‘ULOT
21-MAVZU. RELYEF MAKETINI YASASH

1-topshiriq. Relyef maketini yasaganingizdan so‘ng qanday xulosaga keldingiz? Fikrlaringizni yozing.

2-topshiriq. Relyef tasvirlangan rasmlarni yashil rang bilan ajrating va nomini yozing.














3-topshiriq. Quyida berilgan rasmni bo‘yang. Rasmdagi relyef shakllari nomini va ularning hosil bo‘lishiga qaysi omillar ta’sir etishini yozing.



4-topshiriq. Relyef o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni belgilang.













22-MAVZU. TUPROQ VA SUVDAN QANDAY FOYDALANAMIZ?

1-topshiriq. O‘simliklarning chirindiga aylanish jarayoni ketma-ketligini raqamlang.






2-topshiriq. Rasmlarda ko‘rsatilgan sug‘orish usullarining qaysilarida suvdan tejab foydalanish mumkin?






3-topshiriq. Suvdan samarali va tejab foydalanish uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz? Fikringizni yozing.

4-topshiriq. Rasmni bo‘yang. Tuproq unumdorligini qanday oshirish mumkin?



23-MAVZU. TABIATNI MUHOFAZA QILISH

1-topshiriq. Tabiatni muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz? Fikringizni yozing.

2-topshiriq. Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Insonning tabiatga ta’siri

Ijobiy ta’sir va uning oqibatlari	Salbiy ta’sir va uning oqibatlari

3-topshiriq. Insonning tabiatni muhofaza qilishga urunishlari aks etgan rasmlarni aniqlab, tegishli kataklarni yashil rangga bo‘yang.



AMALIY MASHG‘ULOT

24-MAVZU. QIZIL KITOBGA KIRITILGAN O‘SIMLIK VA HAYVONLARNI O‘RGANISH

1-topshiriq. O‘simlik va hayvonlarni jadvalga yashash joyiga mos holda joylashtiring.


Nitella, fil, yovvoyi anor, quyon, soxta cho‘l astragali, qo‘y, to‘qay tillaqo‘ng‘izi, yirik no‘xat, kaklik, Turkiston qisqichbaqasi, ajriq, Qizilqum kovraki, salomaleykum, yantoq, Farg‘ona lolasi, chumoli, bo‘z echkemar, qizilg‘oz (flamingo), cho‘l burguti, Oloy piyozi, Zarafshon qirg‘ovuli, Sharq chinori, qo‘ng‘ir ayiq, chivin, gepard, arpa, qor qoploni, saksovul, jayron.


	Yashash joyining turi			
	Suv	To‘qay	Cho‘l	Tog‘
O‘simliklar				
Hayvonlar				

2-topshiriq. Avvalgi topshiriqda keltirilgan o‘simlik va hayvonlar orasidan Qizil kitobga kiritilganlarini ajrating va nomlarini quyidagi jadvalga yozing.

3-topshiriq. Rasmni bo‘yang. Unda Qizil kitobga kiritilgan qaysi hayvonlar tasvirlangan?





LOYIHA ISHI

25-MAVZU. KUNLIK SUV SARFINI HISOBLASH

1-topshiriq. Umidga oila a’zolari kun davomida qancha suv sarflaganini hisoblashda yordamlashing va bo‘sh kataklarni mos raqamlar bilan to‘ldiring (onasining kunlik suv sarfi namuna sifatida ko‘rsatilgan).

Oila a’zolari	Sarflangan suv miqdori (litr hisobida)		
	Kunning birinchi yarmida	Kunning ikkinchi yarmida	Kun davomida
Otasi	7	9	
Onasi	6	7	13
Akasi		8	16
Opasi	7		15
Ukasi	5	4	
Singlisi		5	9
O‘zi	7	8	
Jami			

2-topshiriq. Umidning oila a’zolari suvni tejash uchun nima qilishlari kerak deb o‘ylaysiz? Fikringizni yozing.


3-topshiriq. Oila a’zolaringizga sutkalik va haftalik suv sarfini hisoblashda yordamlashing (bo‘sh kataklarni mos raqamlar bilan to‘ldiring).

Oila a’zolaringiz	Sarflangan suv miqdori (litr hisobida)							
	Dushanba	Seshanba	Chor-shanba	Payshanba	Juma	Shanba	Yakshanba	Haftalik
Jami								

4-topshiriq. Suvni ifloslamaslik uchun qanday yo‘l tutish kerak deb o‘ylaysiz? Fikringizni yozing.

26-MAVZU. TOG‘ JINSLARI VA MINERALLAR

1-topshiriq. Bo‘r, qumtosh va marmar tasvirlangan rasmlarga tegishli katakchalarni belgilang.









2-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Vulqon otilganda Yerning ichki qismlaridan yuzasiga tomon lava deb ataluvchi qaynoq suyuq modda oqib chiqadi.	
2.	Olmos, grafit – kamyob minerallar.	
3.	Yer yuzasiga oqib chiqqan magma lava deb ataladi.	
4.	Qaynoq magma sovishidan oldin turli tog‘ jinslarini hosil qiladi.	
5.	Tog‘ jinslarining tarkibidagi qirrali tuzilishga ega, bir-biriga o‘xshamaydigan, qattiq va o‘ziga xos birikmalar minerallardir.	

3-topshiriq. Rasmlarga qarang. Qanday jarayonlar sodir bo‘layotganini aniqlang va yozma bayon eting.



4-topshiriq. Magma va lavani raqamlar bilan ajratib ko‘rsating va rasmni bo‘yang.



AMALIY MASHG‘ULOT

27-MAVZU. SHAMOL VA SUV TA’SIRIDA TOG‘ JINSLARINING O‘ZGARISHI


1-topshiriq. Tosh, qum va tuproqqa ta’rif yozing.







2-topshiriq. Rasmni bo‘yang va o‘z qal’angizni nomlang. Qumning xususiyatlarini yozing.



28-MAVZU. FOYDALI QAZILMALAR


1-topshiriq. Foydali qazilmalarga misollar yozing.

2-topshiriq. Foydali qazilmalarni quyidagi qaysi usulda qazib olish nisbatan xavfsiz deb o‘ylaysiz (tanlovingizni belgilang)? Nima uchun? Fikringizni yozing.





3-topshiriq. Rasmni bo‘yang. Unda foydali qazilmalarni qazib olishning qaysi usuli tasvirlangan?




29-MAVZU. FOYDALI QAZILMALAR QANDAY HOSIL BO‘LADI?

1-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.


T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Okean va dengizlar tubida turli xil tog‘ jinslari suv ostiga cho‘kadi, natijada cho‘kindi jinslar hosil bo‘ladi.	
2.	Neft bor joyda boshqa foydali qazilma uchramaydi.	
3.	Okean, dengiz, ko‘llarning tubida turli jonivorlar va suvo‘tlarning qoldiqlari yig‘ilib, usti loyqalar bilan ko‘milgan va neft hosil bo‘lgan.	
4.	Yer sharining quruqlik qismida neft konlari yo‘q.	
5.	Dengiz va ko‘llarning suvi butunlay qurib, o‘rnida tuz konlari paydo bo‘lgan.	

2-topshiriq. Rasm asosida neft qanday hosil bo‘lishini tushuntiring va fikrlaringizni yozing.




1 2 3 4

3-topshiriq. Neftni qaysi usulda qazib olish arzonga tushadi deb o‘ylaysiz (javobingizni belgilang)?




A



B

4-topshiriq. Rasmni bo‘yang. Neft qazib oluvchi ushbu qurilmaning nomini topishga urinib ko‘ring.



AMALIY MASHG‘ULOT
30-MAVZU. FOYDALI QAZILMALAR HOSIL BO‘LISHIDA ISHTIROK ETUVCHI O‘SIMLIK VA HAYVONLARNI O‘RGANISH

1-topshiriq. Berilgan fikrlar orasidan to‘g‘rilarini belgilang.

a) Neft va tabiiy gaz shamol uchirib kelgan tog‘ jinslarining bir-biriga ishqalanishidan hosil bo‘ladi.

b) Qalin o‘rmonlardagi o‘simliklarning bir-biri bilan qalashib, shoxlari sinib, chirishidan million yillar mobaynida ko‘mir hosil bo‘ladi.

d) Chirindi toshko‘mirning maydalanishidan vujudga keladi.

e) Tuz konlarining hosil bo‘lishi hayvon qoldiqlarining chirishi bilan bog‘liq.

f) Qo‘ng‘ir ko‘mir million yillar davomida toshko‘mirga aylanadi.

2-topshiriq. Toshlardagi qoldiqlar qaysi tirik organizmlarga tegishli ekanini aniqlang va nomini yozing.













3-topshiriq. Nodiraga toshko‘mir hosil bo‘lishi ketma-ketligini to‘g‘ri belgilashga yordam bering.



4-topshiriq. Rasmni bo‘yang. Bolakay qaysi kasbni tanlamoqchi deb o‘ylaysiz?



31-MAVZU. OB-HAVO ELEMENTLARI

1-topshiriq. Ob-havo deganda nimani tushunasiz? Fikringizni yozing.

2-topshiriq. Rasmlar asosida ob-havo holatlarini tavsiflang.







3-topshiriq. Televizor yoki internetdan keyingi 3 kun uchun ob-havo ma’lumotini topib, tahlil qiling.


Ob-havo kuzatilgan kunlar	Havo harorati	Shamol	Yog‘inlar
1-kun			
2-kun			
3-kun			

4-topshiriq. Kun davomida 3 marta (ertalab, tush payti va kechga yaqin) osmonning bulutlilik darajasini aniqlang va quyidagi jadvalda aks ettiring.

Kuzatilgan payt	Bulutlilik darajasi
Ertalab	
Tush payti	
Kechqurun	

32-MAVZU. OB-HAVO NIMALAR TA’SIRIDA O‘ZGARADI?


1-topshiriq. Ob-havo holatlariga tegishli rasmlarni bo‘yang va nomini yozing.



2-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Ob-havo elementlariga havo harorati, bosimi, namligi, yog‘ingarchilik, bulutlilik, shamol yo‘nalishi va tezligi kiradi.	
2.	Ob-havo o‘zgarishining asosiy sababi yog‘in miqdorining o‘zgarishidir.	
3.	Havo harorati ko‘tarilishi bilan havodagi namlik miqdori ortadi.	
4.	Havo bosimida farqning vujudga kelishi shamollarni hosil qiladi.	
5.	Havoda namlik miqdori havo harorati yuqori bo‘lganda kamroq bo‘ladi.	

3-topshiriq. Berilgan ma’lumot asosida kun davomida va so‘nggi uch kunda ob-havo qanday o‘zgarganini izohlab yozing.



AMALIY MASHG‘ULOT
33-MAVZU. MAHALLIY BELGILAR ASOSIDA OB-HAVO O‘ZGARISHI

1-topshiriq. Ob-havoda bo‘ladigan o‘zgarishlarni oldindan aytish mumkinmi? Fikringizni yozing.

2-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Qushlar yer yuzasidan ancha balandda uchishi havo ochiq bo‘lishini bildiradi.	
2.	Yomg‘ir yog‘ayotgan vaqtda havoning iliq bo‘lishi yomg‘ir yana kuchayishini bildiradi.	
3.	Mo‘ridan chiqayotgan tutunning yer bag‘irlab tarqalishi havo aynishini bildiradi.	
4.	Tongda tuman tushishi kun davomida havo issiq va quruq bo‘lishidan darak beradi.	
5.	Quyosh botishi oldidan chiqqan kamalak ertaga yaxshi ob-havo bo‘lishini bildiradi.	
6.	Qoramtir to‘p-to‘p bulutlar yomg‘ir yog‘ishidan dalolat.	
7.	Shafaqning binafsharang bo‘lishi – yomg‘ir, tillarang bo‘lishi esa ochiq ob-havoning alomati.	

3-topshiriq. Rasmni bo‘yang va nomlang. Bunday ob-havoni qanday belgilarga asoslanib oldindan aytish mumkin?




34-MAVZU. TABIATDA SUVNING AYLANISHI

1-topshiriq. Rasmlar orasidan tabiatda suvning aylanishiga ta’sir ko‘rsatadiganlarini “+” bilan belgilang.














2-topshiriq. Suvning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati haqida fikringizni yozing.


3-topshiriq. Rasmni bo‘yang va mos so‘zlarni yozing.



35-MAVZU. OB-HAVO O‘ZGARISHLARINI QANDAY KUZATISH MUMKIN?


1-topshiriq. Kundalik hayotda ob-havoni kuzatishning qanday ahamiyati bor? Fikringizni yozing.

2-topshiriq. Rasmni bo‘yang. Nima sababdan meteorologik stansiyalarning atrofi maxsus panjara bilan o‘rab olinishi haqida o‘ylab ko‘ring.



3-topshiriq. Ob-havo elementlarini o‘lchovchi asboblarni chiziq yordamida nomlari bilan tutashtiring. Berilgan joylarga ushbu asboblar yordamida qaysi ko‘rsatkichlar aniqlanishini yozing.

Barometr



Flyuger



Termometr



LOYIHA ISHI
36-MAVZU. OB-HAVONI KUZATISH

1-topshiriq. Quyidagi jadvalni to‘ldirishda Dildora yo‘l qo‘ygan xatolarni aniqlang va qizil doira bilan belgilang. Nega shunday fikrdasiz, sababini tushuntiring.

Kuzatuv o‘tkazilgan kun	Nimalar kuzatildi?		
	Bulut	Yog‘inlar	Shamol
Dushanba	+	–	–
Seshanba	–	+	+
Chorshanba	+	–	+
Payshanba	–	–	–
Juma	+	–	–
Shanba	–	+	–
Yakshanba	–	–	–


2-topshiriq. Rasmda qaysi kasb egasi tasvirlangan? U nima ish bilan shug‘ullanadi? Fikrlaringizni yozing.



3-topshiriq. Hafta davomida ob-havoni mustaqil ravishda kuzating hamda kuzatuv natijalarini quyidagi jadvalga qayd eting.

Hafta kunlari	Nimalar kuzatildi?		
	Bulut	Yog‘inlar	Shamol
Dushanba			
Seshanba			
Chorshanba			
Payshanba			
Juma			
Shanba			
Yakshanba			

4-topshiriq. Yuqoridagi jadval asosida quyoshli kunlar, yog‘ingarchilik kuzatilgan kunlar hamda sershamol kunlar sonini hisoblang. Qaysi biri ko‘p?






37-MAVZU. YER VA OY ORBITALARI

1-topshiriq. Tajribadan qanday xulosa chiqardingiz? Sizningcha, Yer va Oydan qaysi biri o‘z orbitasini tezroq aylanib chiqadi? Fikrlaringizni yozing.


2-topshiriq. Rasmda qizil va moviy ranglar bilan nimalar tasvirlangan? Nomlarini yozing.







3-topshiriq. Oy va Yer orbitalarini turli ranglar bilan chizishga harakat qiling.







38-MAVZU. YER VA OYNI TAQQOSLAYMIZ

1-topshiriq. Yerga xos xususiyatlarni yashil, Oyga xos xususiyatlarni moviy, har ikkalasiga tegishli xususiyatlarni esa qizil hoshiya ichiga yozing.





2-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Yerning to‘rtta tabiiy yo‘ldoshi bor.	
2.	Havo Yer sayyorasi uchun “ko‘rpa (yopinchiq)” vazifasini bajaradi.	
3.	Oyning yuzasi tekis bo‘lib, uni suv qoplab olgan.	
4.	Oyda harorat kunduzi 120°C gacha sovuq, tunda esa 170°C gacha issiq bo‘ladi.	
5.	Oydagi kraterlardan biri buyuk bobokalonimiz Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi.	

3-topshiriq. Yosh kosmonavtga raketaga boradigan to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsating va o‘z sayyorasiga qaytishiga yordam bering.



39-MAVZU. QUYOSH SISTEMASI

1-topshiriq. “Quyosh sistemasi bo‘ylab sayohat” mavzusida kichik hikoya yozing. Unda sinfdoshlaringiz ham ishtirok etsin.

2-topshiriq. Yosh do‘stlaringiz aks ettirilgan rasmni bo‘yang va ularga ism qo‘ying. Ular ayni damda Quyosh sistemasining qaysi sayyorasida bo‘lishi mumkinligi haqida fikr yuriting.



AMALIY MASHG‘ULOT


40-MAVZU. QUYOSH SISTEMASI MODELINI YASASH

1-topshiriq. Tajribadan qanday xulosa chiqardingiz? Sizningcha, Quyosh atrofida sayyoralarni qaysi ketma-ketlikda joylashtirish kerak? Fikrlaringizni yozing.

2-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

T/r	Bildirilgan fikr	ha/yo‘q
1.	Quyosh atrofida 8 ta sayyora – Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun hamda ularning yo‘ldoshlari, asteroidlar, meteorlar aylanadi.	
2.	Quyosh sistemasining markazida Yer joylashgan, u barcha sayyoralarni o‘ziga tortib turadi.	
3.	Venera Quyoshdan uzoqligiga ko‘ra oltinchi sayyora bo‘lib, xalqimiz uni “Zuhro yulduzi” deb ataydi.	
4.	Saturn – atrofida ulkan halqasi bor sayyora, u kattaligiga ko‘ra Yupiterdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.	
5.	Mars sayyorasi Yerdan 19 marta katta.	
6.	Saturn va Yupiter oralig‘ida ko‘plab kichik sayyoralar – asteroidlar aylanadi.	
7.	Uran sayyorasining massasi Yerning massasidan 14 marta og‘irroq.	

3-topshiriq. Quyosh sistemasidagi sayyoralarni bo‘yang va nomlarini yozing.




41-MAVZU. SOYA HOSIL BO‘LISHI

1-topshiriq. Keltirilgan rasmlarga izoh bering.


a) Qaysi rasmdagi muz tezroq eriydi? Nima uchun?



b) Qaysi rasmdagi qizga quyosh nuri ko‘proq ta’sir qiladi? Nima uchun?



d) Qaysi rasmdagi soyabon ko‘proq soya beradi? Nima uchun?



2-topshiriq. Zahro fonarni yoqib, uni bir jismga yo‘naltirdi. Yorug‘lik jismga yetib bordi va Zahroga qaytib keldi. Fonardan chiqqan yorug‘lik qaysi jismga tushgan?

A) devor
B) ko‘zgu
D) deraza oynasi
E) deraza pardasi

3-topshiriq. Yorug‘likning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqalishiga doir misollar yozing.

1) _____

2) _____

4-topshiriq. Jumlalarni to‘ldiring.

Yorug‘lik turli xossalarga ega. U _____ jismlardan o‘tadi, _____ jismlardan o‘tmaydi.

_____ jismlar yorug‘lik yo‘lini to‘sadi, shuning uchun _____ hosil bo‘ladi.

_____ jismlar yorug‘likni to‘liq o‘tkazadi, shuning uchun _____ hosil bo‘lmaydi.

AMALIY MASHG‘ULOT

42-MAVZU. SOYA HOSIL BO‘LISHINI O‘RGANISH

1-topshiriq. Tajriba natijalarini jadvalga kiriting.

T/r	Kitobning haqiqiy o‘lchami (cm)		Fonar va devor orasi-dagi masofa (cm)	Fonar va kitob orasi-dagi masofa (cm)	Kitob soyasining o‘lchami (cm)	
	bo‘yi	eni			bo‘yi	eni
1			150	30		
2			150	60		
3			150	100		


Olingan natijalarni qayta ko‘rib chiqing. Kitob va uning soyasi o‘lchamlarini o‘zaro taqqoslang. Fikringizni yozing. Tajribadan nimalarni o‘rgandingiz? Xulosa qiling.

2-topshiriq. Soyangiz qachon eng uzun yoki eng qisqa bo‘ladi? Daftaringizga yozing. O‘zingiz uchun quyosh soati yasang.



43-MAVZU. TOVUSH VA UNI KUCHAYTIRISH

1-topshiriq. Rasmlardan tovush kuchaytiruvchi qurilmalarni ajrating va nomini yozing.













2-topshiriq. O‘ylab ko‘ring va jumlalarni to‘ldiring.

1. Teatr va konsert zalida _____ tovushda gaplashish kerak, chunki _____.
2. Futbol o‘yinlarida hakam tovushni _____ maqsadida _____dan foydalanadi, chunki _____ _____.
3. O‘t o‘chirish mashinasi _____ tovush chiqaradi, chunki _____.
4. Jamoat transportida telefonda _____ tovushda gaplashish lozim, chunki _____.

3-topshiriq. Savollarga javob yozing.

1) Mashinalar nima uchun signal beradi?

_____

2) Momaqaldiroq tovushi nimadan darak beradi?

_____

3) Yurak urishi qaysi holatda balandroq eshitiladi: uxlayotgandami yoki jismoniy mashq bajargandami? Nima uchun?

_____

4) Telefondan qanday maqsadlarda foydalaniladi?

_____

AMALIY MASHG‘ULOT
44-MAVZU. STETOSKOP QURILMASINI YASASH

1-topshiriq. Stetoskopni nima maqsadda yasadingiz? Tajribadan nimalarni o‘rgandingiz? Fikringizni yozing.

2-topshiriq. Stetoskop qanday asbob? U kasalliklarni qanday usulda aniqlaydi?

3-topshiriq. Shifokor nima uchun yurak urishini eshitib ko‘radi? Javobingizni yozing.

45-MAVZU. ENERGIYANING BIR TURDAN BOSHQA TURGA AYLANISHI

1-topshiriq. Quyida qanday energiya manbalari berilgan? Ushbu energiya manbalaridan chiqayotgan energiya qaysi turdagi energiyaga aylanadi? Mos rasmlarni chiziq bilan tutashtiring.


















2-topshiriq. Jumlalarni to‘ldiring (elektr qurilmalar nomini yozing).

Masalan: Dazmol elektr energiyasini issiqlik energiyasiga aylantiradi.

_____, _____ elektr energiyasini yorug‘lik energiyasiga aylantiradi.

_____, _____ elektr energiyasini issiqlik energiyasiga aylantiradi.

3-topshiriq. Elektr energiyasini tejashga doir misollar yozing. Javobingizni tushuntiring.

4-topshiriq. Elektr bilan bog‘liq xavfsizlik qoidalarining ahamiyati haqida yozing.

AMALIY MASHG‘ULOT

46-MAVZU. ENERGIYANING BIR TURDAN BOSHQA TURGA AYLANISHINI O‘RGANISH

1-topshiriq. Tajribadan nimalarni o‘rgandingiz? Fikringizni yozing.

2-topshiriq. Savollarga javob yozing.

1) Sham yonganda o‘zidan qanday energiya chiqaradi?

2) Shamdan chiqqan energiya qanday energiya turiga aylandi?

3) Tabiatda qanday energiyalar bir turdan boshqa turga aylanadi?

4) Energiyaning bir turdan boshqa turga aylanishi tirik organizmlar (odam, hayvon va o‘simliklar) uchun qanday ahamiyatga ega?

47-MAVZU. JISMNING HARAKATI

1-topshiriq. Jahongir soat 13:00 da maktabdan chiqib, do‘stlari bilan muzeyga bordi. Uyga qaytishda do‘kondan non olish uchun 15 minut vaqt sarfladi. Agar u 2 soat vaqtini muzeyda o‘tkazib, uyiga soat 16:00 da kirib kelgan bo‘lsa, muzeydan tashqarida qancha vaqt davomida harakatlandi?

Javobingizni yozing.


_____ *minut*

Jahongirning yo‘nalishini chiziqlar orqali ko‘rsating. Binolarning rasmi tagiga nomlarini yozing.













2-topshiriq. Bitta to‘g‘ri javobni tanlang va belgilang.

Rasmlarga qarang. Ularning uzunligini qaysi o‘lchov birligida o‘lchaymiz?

Ruchka		A) santimetr B) metr D) kilometr
Narvon		A) santimetr B) metr D) kilometr
Yo‘l		A) santimetr B) metr D) kilometr

3-topshiriq. Savollarga javob yozing.

Toshkentda quyosh London shahriga nisbatan 5 soat oldin chiqadi. Londonda soat 00:00, ya’ni yarim tun bo‘lganda Toshkentda soat necha bo‘ladi?

Tokioda Toshkentga nisbatan 4 soat oldin Quyosh chiqadi. Toshkentda soat 00:00, ya’ni yarim tun bo‘lganda Tokioda soat necha bo‘ladi?

AMALIY MASHG‘ULOT
48-MAVZU. MASOFA VA VAQTNI O‘LCHASH

1-topshiriq. O‘lchash natijalarini jadvalga kiriting.

Mashina harakati	Masofa (cm)	Harakat vaqti (s)
1-holat		
2-holat		

Ikkala holatda masofa va harakat vaqtini taqqoslang. Tajribadan nimalarni o‘rgandingiz? Fikringizni yozing.

2-topshiriq. O‘ng va chap ustunlardagi mos jumlalarni rangli chiziqlar orqali tutashtiring.

Koptokni ilib olish		Shakl o‘zgartirish
Tormoz berish		Yo‘nalishni o‘zgartirish
Koptokni tepish		Harakatni sekinlashtirish
Pedalni aylantirish		Harakatni boshlash
Plastilindan yasash		Harakatni tezlashtirish
Koptokka zarba berish		Harakatni to‘xtatish

49-MAVZU. HARAKAT TURLARI

1-topshiriq. Harakat turlariga berilgan ta’riflarni to‘ldiring. Har bir harakat turiga oid bittadan rasm chizing va yozma ifodalang. Chap tomondagi namunaga qarang.

To‘g‘ri chiziqli harakat bu – _____

Aylana bo‘ylab harakat bu – _____

Tebranma harakat bu – _____

 Avtomobil to‘g‘ri chiziq bo‘ylab balandlikka ko‘tarilyapti.	
 Arg‘imchoq aylanma harakat qilyapti.	
 Tebranma o‘rindiqda hordiq chiqaring!	

2-topshiriq. Jadvalning o‘ng tomoniga mos harakat turlarini yozing.



Daraxt shoxidan olma uzilib yerga tushdi.	
Sozanda dutorda kuy ijro qildi.	
Osmonni bulut qopladi va jala quydi.	
O‘tgan yili kuzda ekilgan archa niholi o‘sib ko‘kka bo‘y cho‘zdi.	
Vulqon otilishi natijasida Yer silkinishi ro‘y beradi.	
Yerning o‘z o‘qi atrofidagi harakati bir kecha-kunduzga teng.	

3-topshiriq. Harakat turlariga bittadan misol yozing. Bu harakatlarga nima sabab bo‘ldi?

Harakat turlari	Misollar
To‘g‘ri chiziqli	
Aylanma	
Tebranma	

50-MAVZU. MASSA VA UNING BIRLIKLARI

1-topshiriq. Rasmlardagi jismlarning massasini qaysi birlikda o‘lchaymiz? Nima uchun? Bitta to‘g‘ri javobni tanlang va belgilang.

	A) gramm B) kilogramm D) tonna
	A) gramm B) kilogramm D) tonna
	A) gramm B) kilogramm D) tonna
	A) gramm B) kilogramm D) tonna

2-topshiriq.

Idishda 10 ta tuxum bor. Har bir tuxumning massasi 50 gramm, tuxum sarig‘ining massasi 20 gramm, po‘chog‘ining massasi 5 grammdan.

Idishda jami necha gramm tuxum bor?

Javob: _____

Har bir tuxum oqining massasi qancha?

Javob: _____

Agar bir kunda ikkitadan tuxum yesangiz, necha gramm tuxum iste’mol qilasiz?

Javob: _____

3-topshiriq. Temur massasi 8 kg bo‘lgan qovun sotib oldi. U qovunning yarmini bobosi va buvisiga berdi. Qolganining yarmini singlisi va ukasiga berdi. Keyin qolgan qovunning yarmini o‘zi yedi. Yana qovun qoldimi?

Javobingizni yozing.



Javob:

_____

_____

AMALIY MASHG‘ULOT
51-MAVZU. JISMLARNING MASSASINI ELEKTRON TAROZIDA O‘LCHASH

1-topshiriq. O‘lchash natijalarini jadvalga kiriting.


	Jismlar nomi	Massasi (g)
1		
2		
3		
4		

Jismlarning massasini o‘zaro solishtiring. Tajribadan nimalarni o‘rgandingiz? Fikringizni yozing.

2-topshiriq. Maktab shifokori 3-sinf o‘quvchilarining bo‘yi va massasini o‘lchadi. Quyidagi jadvalda 5 nafar o‘quvchining bo‘yi va massa o‘lchamlari ko‘rsatilgan.


O‘quvchilar	Akrom	Bobur	Aziza	Zoir	Lola
Massasi (kg)	25	30	29	32	31
Bo‘yi (cm)	121	130	135	137	134

Ushbu jadval ma’lumotlarini diagrammada ifodalang. Diagrammadan eng og‘ir va eng uzun o‘quvchini toping.




52-MAVZU. JISMLARNING O‘ZARO TA’SIRI


1-topshiriq. Rasmlarga izoh yozing. Kuch ta’siridan so‘ng jismlarning o‘z holatiga qaytishi (qaytmasligi) haqida fikr bildiring.



2-topshiriq. Asfalt yo‘l chetlariga qumli konteynerlar nima maqsadda o‘rnatiladi? Javobingizni yozing.



3-topshiriq. Jadvalning chap tomonida berilgan tabiat kuchlari Yer yuzasining o‘zgarishiga qanday ta’sir qiladi? Javobingizni o‘ng tomonga yozing.

Tabiatdagi kuchlar		Yer yuzasiga ta’siri
	Zilzila	
	Vulqon otilishi	
	Sel va toshqin	
	Momaqaldiroq va chaqmoq	

Bu kabi tabiat kuchlaridan qanday himoyalanish lozim?

Yuqoridagi holatlar yuz berganda qanday harakatlanish haqida fikr bildiring.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

AMALIY MASHG‘ULOT
53-MAVZU. ISHQALANISH KUCHINING HARAKATGA TA’SIRINI O‘RGANISH

1-topshiriq. Tajribadan nimalarni o‘rgandingiz? Amaliy ishni bajarishda qanday xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerak? Fikringizni yozing.

2-topshiriq. Rasmdagi holatlarni izohlang. Qaysi holatda ishqalanish ko‘proq? Javobingizni yozing.

A)



B)



D)



E)



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘quv nashri

TABIIY FANLAR

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
3-sinfi uchun mashq daftari

Muharrir *Xurshidbek Ibrohimov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Rassom *Dilmurod Mulla-Axunov*
Sahifalovchi-dizayner *Alimardon Aqilov*
Musahhih *Orifjon Madvaliyev*

Bosishga 26.04.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 70x90 $^{1}/_{16}$.
Arial garniturasi. Kegli 14. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 7,00. Nashriyot-hisob tabog‘i 6,47.
Adadi _____nusxa. Buyurtma № ___.

“Yangiyul Poligraph Service” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
112001. Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahri,
Samarqand ko‘chasi, 44-uy.